

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

"SANOAT TEXNOLOGIYASI" FAKULTETI

**«OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI»
KAFEDRASI**

**5321000–oziq ovqat texnologiyasi (don mahsulotlari) bakalavr talim
yo‘nalishi talabalari uchun**

«OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI ASOSLARI»

fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun

USLUBIY KO‘RSATMA



Qarshi - 2022 y.

«Umumiy oziq-ovqat texnologiyasi» fanidan uslubiy ko'rsatma davlat ta'lim standarti asosida tayyorlangan bo'lib, 5321000 - Oziq-ovqat texnologiyasi (don mahsulotlari) bakalavr ta'lim yunalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: «OOMT» kafedrasi mudiri, dotsent **Boqiyev G'.O**

Taqrizchilar: «OOMT» kafedrasi mudiri, prof. **Axmedov A.N.**
“Dunyo-M” AJ tegirmon mexanigi **Raxmatov X.O.**

Amaliy mashg'ulotlar «OOMT» kafedrasi yig'ilishida (Bayon № _____ 2022 y.) Sanoat texnologiyasi fakulteti uslubiy komissiya yig'ilishida (Bayon № _____ 2022 y.) va institut uslubiy Kengashida (Bayon № _____ 2022 y) ko'rib chiqildi va o'quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

1	№	<u>Amaliy mashg‘ulotlar nomi</u>	bet
2		<u>Kirish</u>	4
3	1-Amaliy mashg‘ulot	Saqlashga qabul qilingan xom ashylarni tabiiy kamayishi meyorlarini hisoblash.....	7
4	2- Amaliy mashg‘ulot	Harid qilingan don uchun hisob- kitob.....	12
5	3- Amaliy mashg‘ulot	Pomol partiya tuzish.....	16
6	4- Amaliy mashg‘ulot	Yorma ishlab chiqaruvchi uskunalarining quvvatini hisoblash.....	21
7	5- Amaliy mashg‘ulot	Non ishlab chiqarish korhonalari quvvatini xisoblash.....	33
8	6- Amaliy mashg‘ulot	Uzumni birlamchi korxonalarda qayta ishlashning hisobi.....	36
9	7- Amaliy mashg‘ulot	Paxta chigitidan forpresslash-ekstraksiyalash usuli bilan moy olishning moddiy hisobi.....	39
10	8- Amaliy mashg‘ulot	Rafinatsiyalangan pahta moyining hisobi.....	43
11	9- Amaliy mashg‘ulot	Margarin retsepturasini tuzish.....	49
12	10- Amaliy mashg‘ulot	Go‘sht olishning hisobi.....	54
13	11- Amaliy mashg‘ulot	Kolbasa mahsulotlari hisobi va ularning retsepturasini tuzish.....	57
14	12- Amaliy mashg‘ulot	Sut mahsulotlar hisobi.....	62
15		Adabiyotlar.....	66

KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro ekspert tadqiqotlari jahonda va uning ayrim mintaqalarida ushbu muammo bilan bog'liq murakkab vaziyat yuzaga kelayotgani jiddiy tashvish va xavotir uyg'otayotganini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda mazkur muammo jahon hamjamiyati uchun o'ta dolzARB va jiddiy tahdidlar qatoriga kiritilmoqda.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 840 milliondan ortiq kishi, ya'ni deyarli har sakkiz odamning biri to'yib ovqatlanmayapti, sayyoramiz aholisining 30 foizidan ziyodi to'laqonli ravishda ovqatlanmaslik, eng asosiy mikroelement va vitaminlar yetishmasligi muammosini boshidan kechirmoqda. Ana shunday sabablar tufayli 160 milliondan ortiq bola bo'yining o'sishi, jismoniy va intellektual rivojlanishiga doir kamchiliklardan aziyat chekmoqda.

2008-yilda boshlangan inqiroz bilan bog'liq voqealar barchamizning esimizda, o'shanda jahon miqyosida narx-navo ko'tarilib, oziq-ovqat ta'minotida uzilishlar yuzaga kelgani Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab davlatlarida norozilik va ommaviy tartibsizliklarga sabab bo'lgan, butun dunyoda barqarorlikka nisbatan jiddiy xavf-xatarga aylangan edi.

Sodda qilib aytganda, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi aholi soni va ehtiyojlarining o'sishidan ortda qolmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini isloh qilishning asosiy negizini keng ko'lamli institusional o'zgarishlar tashkil etdi, ularning mazmun-mohiyati ma'muriy va rejali-taqsimot tizimidan voz kechish va bozor munosabatlariiga o'tishdan iborat edi.

O'zbekistonning ko'plab mintaqalari qisqa muddatda jahon bozorida xaridorgir bo'lgan meva va sabzavot mahsulotlari yetishtiradigan va eksport qiladigan hududlarga aylandi. Yurtimizda yuqori hosil beradigan intensiv bog'lar tashkil qilindi, tomchilatib sug'orish tizimi joriy etildi. Faqatgina o'tgan yili uzumchilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturda tokzorlarni 1,3 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan.

Istiqlol yillarida, ya'ni o'tgan 22-yil davomida qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida g'alla yetishtirish hajmi 1 million tonnadan 7,8 million tonnaga yetdi va O'zbekiston g'alla eksport qiladigan mamlakatlar qatoridan joy egalladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 barobardan ziyod oshdi. Bu mamlakatimiz aholisining qariyb 10 million kishiga yoki 30 foizdan ortiq ko'payishiga qaramasdan, jon boshiga to'g'ri keladigan go'sht iste'molini 1,3 barobar, sut va sut mahsulotlarini 1,6 karra, kartoshkani 1,7 barobar, sabzavotlarni 2-martadan ziyod, mevalarni qariyb 4 barobar oshirish imkonini berdi.

Mamlakatimizda har yili 16 million tonnaga yaqin meva va sabzavot yetishtirilmoqda. Aholi jon boshiga qariyb 300 kilogramm sabzavot, 75 kilogramm kartoshka va 44 kilogramm uzum to'g'ri kelmoqda. Bu optimal, ya'ni maqbul deb hisoblanadigan iste'mol meyordan uch barobar ko'pdir.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Oziq-ovqat dasturi aholining to‘laqonli va mutanosib ratsion asosida ovqatlanishini ta’minlashdek muhim vazifani hal etish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtida biz umumiyligi qariyb 5 milliard dollar bo‘lgan oziq-ovqat, birinchi navbatda, meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilmoqdamiz. So‘nggi uch yilda eksport qilinayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3 barobardan ziyod oshdi.

Mamlakatimizning mahsulot yetkazib beradigan korxonalarini xalqaro ko‘rgazma va ixtisoslashtirilgan yarmarkalarda faol ishtirok etmoqda. **Biz dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq har xil meva-sabzavot va ularni qayta ishslash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilmoqdamiz.** O‘zbekiston o‘rik, olxo‘ri, uzum, yong‘oq, karam va boshqa ko‘plab meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo‘yicha dunyoda shunday mahsulotlarni yetkazib beradigan o‘nta yetakchi davlat qatoriga kiradi.

«Umumiyligi oziq-ovqat texnologiyasi» fanining vazifasi texnologik jarayonlarni va ularning nazariy asoslarini, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik rejimlari, shuningdek mahsulotning sifatini boshqarish asoslari, xom ashyo chiqindi, oraliq va tayyor mahsulotlarning tahlil usullarini chuqr va har tomonlama o‘rgatishdir.

Qo‘llanmaning asosiy maqsadi talabalarning amaliy mashg‘ulotlarga mustaqil tayyorlanishida va xisob-kitoblarni amalga oshirishda yordam berishdir. Shuning uchun tahlilning bayoni bilan bir qatorda bir qatorda mahsulotning moddiy xisobi, yordamchi materiallar xisobi va mahsulot balansiga tegishli ma’lumotlar berilgan.

Bundan tashqari xom ashyo va materiallar vaqt birligiga (soat, sutka, yil) nisbatan ham hisoblanadi. Xom ashyo va materiallar sarfini xisoblash sanoatning ma’lumotlariga va nazariy xisoblarga asoslanadi. Agar bir xil xom ashysidan bir necha xil maxsulot ishlab chiqarilsa, u xolda xom ashyo sarfi xar bir ishlab chiqarilgan maxsulotga nisbatan xisoblanadi.

«Umumiyligi oziq-ovqat texnologiyasi» fanidan ishchi o‘quv dasturiga asosan 12 ta amaliy mashg‘ulot belgilangan.

Uslubiy qo‘llanma oxirida adabiyotlar ro‘yxati berilgan bo‘lib, bu adabiyotlar sinov va imtihonlarga tayyorlanish uchun talabalarga yordam beradi.

1-AMALIY MASHG‘ULOT
SAQLASHGA QABUL QILINGAN XOM ASHYOLARNI TABIIY
KAMAYISHI MEYORLARINI HISOBLASH
(Don va don mahsulotlari misolida)

Don va don mahsulotlarni jo‘natish bu- yakunlovchi bosqich bo‘lib u quyidagi tadbirdan iborat: tashkiliy va texnologik. Xar bir korxonada don va don mahsulotlarini miqdorini, sifatini nazorat qilishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va hisob-kitoblarni to‘g‘ri olib borish katta ahamiyatga ega. Bu hisobni murakkabligi shundaki, don mahsulotlarini saqlash davrida xam sifati ham miqdori o‘zgarib turadi.

Masalan don partiyasini sifati o‘zgarishi bilan uning massasi ham o‘zgarib boradi. Shuning uchun don qabul qilishi korxonalarida don massasining kamayishi miqdor-sifat xisob bo‘yicha amalga oshiriladi.

Don mahsulotlarni saqlash davrida quruq moddalar massasi yo‘qolishi va xisobga olinmagan nobudgarchilikni xisobga olingan xolda, tabiiy kamayish meyorlari kiritilgan (% hisobida) bu meyorlar laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida tadqiqotlar natijasi asosida tuzilgan.(4-jadval)

Tabiiy kamayish miqdori don va don mahsulotlarni qaysi sinfdan, omborxonalarini xiliga va saqlash usuliga bog‘liqdir. Bu normalar 3, 6 oy va 1 yilga mo‘ljallangan. Oraliq saqlash muddatlari quyidagi formulalar yordamida topiladi.

1. 3-oydan kam bo‘lgan saqlash muddati, tabiiy kamayish miqdorini haqiqiy saqlash kunlari quyidagi formula yordamida topiladi.

$$x = \frac{a \cdot \delta}{90}$$

bu yerda: a- 3 oy saqlash muddatidagi kamayish normasi (jadvaldan)

b-saqlanayotgan partiyani o‘rtacha saqlash muddati (kun)

Masalan: Akt bo‘yicha omborxonada 38000 kg, o‘rtacha saqlash muddati 65 kun bo‘lgan sulini tabiiy kamayishi meyorini aniqlang.

Bunda: a=0,09

$$x = \frac{0,09 \cdot 65}{90} = 0,065\% \quad \text{yoki}$$

$$\frac{38000 \cdot 0,065}{100} = 252,85 \approx 253 \quad \text{kg}$$

2. Saqlash muddati 3-oydan ortiq bo‘lganda tabiiy kamayishni hisoblashda, jadval bo‘yicha qaysi intervalda (oraliqda) shu partiyani o‘rtacha saqlash muddati turganiga bog‘liq.

Agarda o‘rtacha saqlash muddati 5 oy 18 kun ya’ni, 5,6 oy bo‘lsa, tabiiy kamayish normasi 3 va 6 oy oraliqda bo‘ladi. Agarda o‘rtacha saqlash muddati 9 oy 27 kun ya’ni, 9,9 oy bo‘lsa, tabiiy kamayishi normasi 6 oy va 1 yil ichida bo‘ladi. Bunda tabiiy kamayish quyidagi formula yordamida topiladi.

$$x = a + \frac{\delta\epsilon}{\varepsilon}$$

bu yerda: a – avvalgi saqlash muddati jadvaldan olingan tabiiy kamayish normasi

b – avvalgi va keyingi saqlash muddatlarini kamayish normasining farqi.

v – berilgan partiyani o‘rtacha saqlash muddati normasi bilan bo‘lgan farq
g – keyingi va avvalgi saqlash muddat normalarini farqi.

Masalan: Akt bo‘yicha omborxonada 389000 kg o‘rtacha saqlash muddati va avvalgi muddati 5 oy 24 kun (5,8 oy) bo‘lgan suli bor. Saqlashda sulini tabiiy kamayish meyorini aniqlang?

Bu partiyani saqlash muddati 3 va 6 oy oraliqda avvalgi kamayishi meyori ya’ni, 3 oy saqlash muddati meyori 0,009%, keyingisi esa 6 oy-0,125%.

$$a=0,009\%, b=0,125-0,009=0,035\%$$

$$b=5,8-3=2,8; \quad g=6-3=3$$

$$x = 0,09 \frac{0,35 \cdot 2,8}{3} = 0,123\% \quad \text{yoki} \quad \frac{389000 \cdot 0,123}{100} = 478 \text{ kg}$$

3. Bir yildan ortiq saqlangan don, don mahsulotlari va urug‘larni saqlash muddatini xar keyingi yildan tabiiy kamayish meyori 0,04% miqdoriga qayta hisoblanadi.

Temir, suv va avtomobil yo‘llarida transprotirovkalashdagi tabiiy kamayish meyori partiyani tashishdagi haqiqiy masofasiga bog‘liq. Tabiiy kamayishi miqdorini olib ketayotgan korxona hisobidan qayrib tashlanadi.

Masalan: Akt bo‘yicha omborxonada saqlash muddati 17,5 oy bo‘lgan suli bor. Saqlashda sulini tabiiy kamayishini aniqlang? Avvalgi kamayishi normasi ya’ni 1yil saqlash muddati 0,165%, bir yildan ortiq saqlash muddati bilan meyori 0,04% shunda

$$a=0,165\%; \quad b=0,04\%$$

$$v=17,5-12=5,5; \quad =12$$

$$x=0,165+ \frac{0,04 \cdot 5,5}{12} = \frac{389000 \cdot 0,183}{100} - 712 \text{ kg}$$

1 -jadval

Saqlash davrida donning tabiiy kamayish meyorlari(% hisobida).

Mahsulot va ekin turi	Saqlash muddati	Omborda		Elevatorda	Moslashtirilgan maydonlarda
		to‘kma	opda		
Bug‘doy, javdar, arpa	3-oygacha	0,07	0,04	0,05	0,12
	6-oygacha	0,09	0,06	0,07	0,16
	1yilgacha	0,12	0,09	0,10	-
Suli	3-oygacha	0,09	0,05	0,06	0,15
	6-oygacha	0,13	0,07	0,08	0,20
	1yilgacha	0,17	0,09	0,12	-
Grechixa va sholi	3-oygacha	0,08	0,05	0,06	-
	6-oygacha	0,11	0,07	0,08	-
	1yilgacha	0,15	0,10	0,12	-
Tari, chumiza, sorgo	3-oygacha	0,11	0,06	0,07	0,14
	6-oygacha	0,15	0,08	0,09	0,19
	1yilgacha	0,19	0,10	0,14	-
Makkajo‘xori doni	3-oygacha	0,13	0,07	0,08	0,18

	6-oygacha	0,17	0,10	0,12	0,22
	1yilgacha	0,21	0,13	0,16	-
Makkajo‘xori so‘tasi	3-oygacha	0,25	-	-	0,45
	6-oygacha	0,30	-	-	0,25
	1yilgacha	0,45	-	-	0,70
	No‘xot, chechevitsa, dukkaklar: loviya, vika va soY.	3-oygacha	0,07	0,04	0,05
	6-oygacha	0,09	0,06	0,07	-
	1yilgacha	0,12	0,08	0,10	-
Kungaboqar	3-oygacha	0,20	0,12	0,14	0,24
	6-oygacha	0,25	0,15	0,08	0,30
	1yilgacha	0,30	0,20	0,23	-
Boshqa yog‘li donlar	3-oygacha	0,10	0,08	-	-
	6-oygacha	0,13	0,11	-	-
	1yilgacha	0,17	0,14	-	-
Yorma	3-oygacha	-	0,04	-	-
	6-oygacha	-	0,06	-	-
	1yilgacha	-	0,09	-	-
Un	3-oygacha	-	0,05	-	-
	6-oygacha	-	0,07	-	-
	1yilgacha	-	0,10	-	-
Kepak va unsimon zarralar (muchka)	3-oygacha	0,20	0,12	-	-
	6-oygacha	0,25	0,16	-	-
	1yilgacha	0,35	0,20	-	-
O‘t urug‘lari: klever, (lyuserna), donnik, beda	3-6 oy	-	0,15	-	-
	6-oydan ko‘p	-	0,20	-	-
Timofeyevka, o‘tloq yalpizi, (myatlik lugovoy, oq palevitsa)	3-6 oy ko‘p	-	0,14	-	-
	6-oydan ko‘p	-	0,22	-	-
Jitnyak, po‘rey, bez kornevihno‘y, ovsyanitsa, qizil esparset, seradella	3-6 oy ko‘p	0,15	0,10	-	-
	6-oydan ko‘p	0,20	0,15	-	-
Sudan o‘ti, mogar	3-6oyko‘p	-	0,15	-	-
	6-oydan ko‘p	-	0,25	-	-
Lyupin	3-6oyko‘p	0,26	0,18	-	-
	6-oydan ko‘p	0,32	0,24	-	-

2- AMALIY MASHG‘ULOT HARID QILINGAN DON UCHUN HISOB- KITOB

Jamoa, davlat, xissadorlik jamiyatlari va dehon-fermer xo‘jaliklari tomonidan topshirilayotgan don hamda urug‘lar ma’lum talablarga javob berishlari kerak. Buning uchun tayyorlanish konditsiyalari yoki sifat meyorlari belgilangan. Amaliyotda donning faqat asosiy sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha asosli va chegaralangan konditsiyalar belgilanadi.

Asosli konditsiyalar. Jamoa, davlat, xissadorlik jamiyatlari va dehqon-fermer xo‘jaliklari tomonidan tayyorlangan don va urug‘larni saqlash davrida uning saqlanuvchanligini va bir joydan ikkinchi joyga jo‘natilishda sifat ko‘rsatkichlari talab qilingan darajada hamda uni qayta ishslashda yuqori sifatlari mahsulot chiqishini ta’minlash kerak.

Shuning uchun asosli konditsiyalar don va urug‘lar hisob-kitobi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular uchun topshirish hamda sotib olish narxlari belgilangan. Don va urug‘lar davlat tomonidan belgilangan narxlar bilan to‘lanadi. Agar don sifati ko‘zlangan konditsiyalardan farq qilsa, u vaqtida qisman chegirish va qo‘shimcha haq qo‘shiladi. Don va urug‘lar asosli konditsiyalarga ifloslik va ombor zararkunandalari bilan ta’sirlanishi barcha tuproq va iqlim sharoiti uchun yagona.

Chegaralangan konditsiyalar. Davlatga sotiladigan don va urug‘larning sifatinini pasayishi meyor bilan cheklangan bo‘lib, chegaralangan konditsiyasi deb aytildi. Bu meyorlar oxirgi ko‘rsatgich bo‘lib, don qabul qiluvchi korxonalar tomonidan maxsus ruxsatnomaga binoan qabul qilinadi. Agar donning sifati chegaralangan konditsiyadan past bo‘lsa, u vaqtida don qabul qiluvchi korxonalar maxsus ruxsatnoma bo‘yicha qabul qilinishi mumkin. Don sotib olish rejasiga ko‘ra quyidagi kamchiliklari bor, bo‘lgan donlar qabul qilinmaydi. Xar xil yomon xidlari bo‘lib, qizib sasiyidigan shamollatganda xidlari yo‘qolmaydigan (benzin, kerosin), urug‘lar aralashmasi tarkibida 1 foizdan ko‘p mayda toshlar, mavjud. Don uyumlari aralashmasi tarkibida unib chiqqan donlar miqdori 5 % dan yuqori bo‘lsa va boshqalar.

Asosli chegirish konditsiyadan sifat bo‘yicha chetlanish yoki o‘zgarishlarga yo‘l qo‘yilsa, u vaqtida natural va pulli chegirish hamda qo‘shimchalar qo‘llaniladi.

2- jadval

Ko‘rsatkichlar	Chegirish % hisobida.		qo‘shimcha % hisobida.	
	og‘irligidan	narxidan	og‘irligiga	narxiga
Namlik	Asosli konditsiyadan yuqori bo‘lgan har 1%namlik uchun		Asosli konditsiyadan past bo‘lgan har 1%namlik uchun	
	1,0	0,4	1,0	-
Iflos aralashma	Asosli konditsiyadan yuqori bo‘lgan har bir foiz namlik uchun		Asosli konditsiyadan har biri 0,1 foiz past bo‘lgan aralashma uchun	
	1,0	0,3	0,1	-
Donli aralashma	Asosli konditsiyadan yuqori bo‘lgan har bir foiz namlik uchun		-	
	-	0,1	-	-

Asl og ‘irlit	Asosli konditsiyadan past bo‘lgan har bir don 10g asl og ‘irlit uchun		Asosli konditsiyadan yuori bo‘lgan har bir 10g asl og ‘irlit uchun	
	-	0,1	-	0,1
Ombor zararkunandalari bilan zararlanish.	Donni kana bilan zararlanishi			
	-	0,5	-	-

Eslatma- Yuqorida keltirilgan asl og ‘irligi bo‘yicha chegirish donni topshirish paytida bug‘doyning asl og ‘irligi 750g past bo‘lganda javdarining asl og ‘irligi 700g. past bo‘lganda qo‘llaniladi.

Natural chegirish yoki qo‘shimchalar -ikki asosiy sifat ko‘rsatkichlari, ya’ni, namlik va begona aralashma bo‘yicha belgilangan. Don qabul qilish korxonasiiga yetkazib kelingan donning sifati namligi va iflosligi bo‘yicha bazis meyorlaridan sifat ko‘rsatkichlari jihatdan farq qilganda, har bir 1% namligi va iflos aralashmasi kam bo‘lganda 1% miqdorida natural qo‘shimcha qo‘shiladi, agar bu jarayonning aksi bo‘lsa ya’ni tarkibdagi namlik va iflos aralashmalar miqdori ko‘p bo‘lsa natural chegirishni donlarning fizik og‘irligi qo‘llanilishi orqali amalga oshiriladi. Natural chegirish yoki qo‘shimcha 0,1 % aniqlikda hisoblab chiqiladi.

Natural chegirish yoki qo‘shimcha kataligida(namligi va iflos aralashmasi bo‘yicha tayanch meyorlardan chetga og‘ishga muvofiq) ko‘paytirilgan yoki kamaytirilgan don tabiiy og‘irligi belgilangan narxlar bo‘yicha xisobga olingan (zachyot) massa hisoblanadi va kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq xaridlarni bajarishga hisoblab qo‘shiladi. Natural chegirish yoki qo‘shimcha namligi va iflos aralashma jihatidan sifatdan chetga og‘ish yig‘indisiga hisoblab chiqiladi.

Asl chegirish va qo‘shimcha qo‘shish quyidagicha hisoblanadi.

Masalan, namlik bo‘yicha chegirish 1,55%, yaxlitlansa 1,6%, begona aralashma bo‘yicha esa 1,13%, yaxlitlansa 1,1%. Umumiyl asl chegirish 2,7 % teng bo‘ladi.

Hisoblash tartibi: Tahlil ilinayotgan donning sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanib, fizik og‘irlikdan asl chegirish xajmi va 200 tonna don to‘plamining fizik og‘irligiga nisbatan qo‘shimchalar qo‘shib aniqlanadi. Don hisoblanadigan miqdor og‘irligidagi narxi belgilanadi. Asosli konditsiyadan sifatini o‘zgarish hamda donni quritish va tozalash narxi bo‘yicha puli chegirish hamda qo‘shimcha qo‘shish miqdori hisoblanadi. Jamoa xo‘jaligi tomonidan davlatga sotilgan donni quritish va tozalashga ketgan xarajatlarni hisobga olib, xo‘jalikka to‘lanadigan umumiyl pul miqdori jamlanadi.

Donning hisoblanadigan miqdori fizik og‘irligi chegirish va qo‘shimcha qo‘shish miqdori (foizida), namligi va begona aralashmalar aniqlanadi. Hisoblanadigan miqdorida haq to‘liq to‘lanib, don sotish v topshirish rejasi bajarilgan deb hisoblanadi. So‘tali makkajo‘xorining hisoblanadigan miqdori faqat donning xaqiqiy chiqish miqdori aniqlangandan keyingina belgilanadi. Donning so‘tadan chiqishi don qabul qiluvchi tashkilotning laboratoriylarida o‘rtacha kundalik namunani yanchish orqali aniqlanadi.

1.misol. Masalan, don qabul qiluvchi tashkilotga javdar donidan 250t (250000kg) keltirilgan bo‘lib, uninig namligi 16,8 % ini, begona aralashmalar 2,2 % ni tashkil etgan. Asosli konditsiya bo‘yicha namligi 15 % va begona aralashmalar 1 % bo‘lganda u yoki bu tomonga og‘ish 3,0 % (namlik 16,8-15=1,8 % ga va begona aralashma 2,2-1=1,2 % iga teng bo‘ladi). Hammasi bo‘lib 1.8+1.2=3,0 % ini tashkil etadi. Og‘irlikdan chegirish $250000 \times 3,0 / 100 = 7500$ kg ni tashkil etadi.

Javdar donning hisoblanadigan miqdori:

$250000 - 7500 = 242500$ kg.ga teng bo‘ladi.

2-misol. Makkajo‘xorining haqiqiy miqdori so‘tasi bilan birga 80000kg bo‘lib, laboratoriya ma’lumotga ko‘ra donning chiqishi 75 foizni tashkil qilgan bo‘lib, namlik bo‘yicha chegirmalar 5%, begona o‘tlar aralashmasi bo‘yicha 3%, jami 8%. Makkajo‘xori donining fizik og‘irligi $80000 \times 75 / 100 = 60000$ kg, natural chegirish miqdori $60000 \times 8 / 100 = 4800$ kg ni tashkil etadi. Makkajo‘xori donning kg hisoblanadigan miqdori esa $60000 - 4800 = 55200$ kgga teng bo‘ladi. Shunday qilib, hisoblanadigan miqdor ikki bosqich orqali aniqlanadi. Avval natural chegirish yoki qo‘sishma miqdori kiritiladi.

3-AMALIY MASHG‘ULOT POMOL PARTIYA TUZISH.

Tegirmونlarga kelib tushayotgan bug‘doyning texnologik xususiyatlari uning turi, navi, yetishtirilgan hududning iqlim va tuproq sharoitlari bilan belgilanadi. Don partiyalarining turli sifatligi ularga qayta ishlov berish jarayonining samaradorligini pasaytiradi va murakkablashtiradi. Texnologik sistemaning ish rejimini qayta – qayta tashkil etishni talab etadi hamda turli sifat ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan unlar ishlab chiqarishiga olib keladi.

Shuning uchun zavodni bir kecha-kunduz davomida bir xil, muvozanatli ish bilan ta’minlovchi “pomol” partiyalari (turli sifat ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan donlardan meyorlashtirilgan aralashmalar) shakllantiriladi.

Buning uchun muhim bo‘lgan tayyorlov jarayonini to‘g‘ri tashkil etish yuqori sifatli donlarni tejash va past sifatli donlarni ketma-ket ishlatish bilan donlardan unumli foydalanishga olib keladi.

“Pomol” partiyalari tarkibini hisoblash navlarning % miqdori, komponentlarning massalari, “pomol” partiyasining sifat ko‘rsatkichi zavodlarning ishlab chiqarish quvvatidan, maydalash turidan, donning va tayyor mahsulotning sifatidan kelib chiqadi. “Pomol” partiyalari turli tipli, turli hududlarda yetishtirilgan, yangi va eski xususiyatli past va meyoriy sifatga ega bo‘lgan donlarni aralashtirish bilan tuziladi. Komponentlar shunday tanlanadiki, bunda dondan un olishning va unning mahsulorlik xususiyatlarining yuqori bo‘lishini ta’minalash zarur.

Donlar quyidagi sifat ko‘rsatkichlar hisobiga olingan holda aralashtiriladi: shaffofligi, kleykovinasi, kul moddasi miqdori, namligi va ifloslanganlik darajasi.

Turli namlikka ega bo‘lgan donlarni aralashtirilishda namliklar farqi 1,5% dan oshmasligi kerak.

Yuqori va past kuldorlikka ega bo‘lgan donlar aralashtirilganda hosil bo‘lgan aralashmaning kul miqdori 1,97% dan oshmasligi kerak. «Pomol» partiyalarining o‘rtacha shaffofligi 50-60% bo‘lishini hisobga olib, shaffoflikka ega bo‘lgan donlar

aralashtiriladi. Asosiy e'tiborni «pomol» partiyasiga kerakli miqdor va sifatga ega bo'lgan kleykovinani ta'minlab berishga qaratish lozim, chunki ishlab chiqarilayotgan un ana shu xususiyati bilan tavsiflanadi. Navli un tarkibida kleykovina miqdori 25% dan kam bo'lmasligi, sifati II sinfdan past bo'lmasligi; chiqindilar miqdori 2% dan oshmasligi, donli chiqindilar 5% dan oshmasligi talab etiladi.

«Pomol partiya»si tuzish hisobining usullari

Hisoblashning quyidagi usullari mavjud: tenglamani yechish, teskari proporsiya tuzish, grafigini (chizma) qurish.

Tenglamani yechish usuli. «Pomol» partiyasi tarkibini hisoblashda tenglamalar sistemasidan foydalanish mumkin, bunda noma'lumlar sifatida saralanuvchi har bir komponentning foizlardagi ulushi yoki vazni belgilanadi. Tenglamalar sistemasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{cases} M = \bar{m}_1 + \bar{m}_2 + \dots + \bar{m}_n \\ \bar{Mx} = m_1 x_1 + m_2 x_2 + \dots + m_n x_n \end{cases}$$

Agar «pomol» partiyasi ikki komponentdan tashkil topgan bo'lsa, u holda sistema yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$m_1 = \frac{M \begin{pmatrix} \bar{x} - x_2 \end{pmatrix}}{x_1 - x_2}; \quad m_2 = M - m_1$$

Agar 3 komponentli bo'lsa, ikkitasining massaviy tenglamalarini ishlash bilan masala yechimi topiladi:

$$m_1 = \frac{M \begin{pmatrix} \Delta x_2 + \Delta x_3 \end{pmatrix}}{\sum \Delta x}; \quad m_2 = \frac{M \Delta x_2}{\sum \Delta x}; \quad m_3 = M - (m_1 + m_2)$$

bu yerda M-don «pomol» partiyasining massasi;

$$\Delta x_1 = \begin{pmatrix} \bar{x} - x_1 \end{pmatrix};$$

$$\sum \Delta x = 2 \Delta x_2 + \Delta x_2 + \Delta x_3$$

Murakkab “pomol” partiyalarini tuzishda asosiy hisob uslubi o'zgarmaydi. Don aralashmasi tarkibida 4 va 5-komponentlarning miqdori kam bo'lgani uchun (10%gacha), ular natijaviy hisoblarga ta'sir ko'rsatmaydi.

Misol. O'rtacha shaffofligi 55% bug'doy donidan navli un olish uchun ikki komponentdan birining o'rtacha shaffofligi 71 va ikkinchisini esa 43%, ularning kleykovinalari nisbati 27 va 24% bo'lgan don partiyasidan massasi 1000 t (100%) ga teng bo'lgan «pomol» partiyasi tuzish talab etiladi. Shunda

$$\bar{m}_1 = \frac{100 * (55 - 43)}{71 - 43} = 42,86; \quad \%$$

$$\bar{m}_2 = 100 - 42,86 = 57,14\%$$

$m_1 \approx 43\%$, $m_2 \approx 57\%$, deb qabul qilamiz, unda har bir komponentning massasi $m_1=430$ t; $m_2=570$ t. ni tashkil qiladi Shaffoflikning o‘rtacha ifodasini S va kleykovina miqdorini K (%) bilan belgilab, hisoblarning to‘g‘riligini aniqlaymiz:

$$C = \frac{43 * 71 + 57 * 43}{100} = 55 \%$$

$$K = \frac{43 * 27 + 57 * 24}{100} = 25,3 \%$$

Teskari proporsiya tuzish usuli. Bu usulda “pomol” partiyasidagi har bir komponentning ko‘rsatkichlari bilan shu partiya uchun belgilangan o‘rtacha ko‘rsatkich qiymatlari orasidagi farq munosabati bilan teskari proporsiyalar tuziladi. “Pomol” partiya hisobining to‘g‘riligini baholashda uning shaffofligi va kleykovina miqdori aniqlanadi.

Jadvalda ikki variant asosida misol keltirilgan. Unda birinchi komponentning ulushi 12, ikkinchisini 16, aralashma esa 28 qismdan tashkil topgan.

3-jadval


Donning «pomol partiya» sini hisoblash

Ko‘rsatkichlar	Aralashma komponentlari		Talab qilinadigan partiya
	Birinchi	ikkinchi	
Shaffofligi %	71	43	55
Talab qilingan shaffoflik komponentining farqi	71-55=16	55-43=12	
Komponent partiyalarning nisbatlari	12	16	12+16=28

$$\text{Binobarin, } m_1 = \frac{100 * 12}{28} = 43 \% \quad m_2 = \frac{100 * 16}{28} = 57\%;$$

Grafik tuzish usuli. Bu usulda “pomol” partiyasi tarkibini hisoblash uchun qog‘ozga ikkita kesishuvchi chiziqlar o‘tkaziladi, kesishish nuqtasiga “pomol” partiyasi uchun talab qilinadigan ko‘rsatkich (aralashma kleykovinası, shaffofligi yoki kul moddasi miqdori) qo‘yiladi. Chiziqlarning chap tomonidagi uchiga aralashma komponentlarining ko‘rsatkichlari yoziladi. Aralashma ko‘rsatkichi bilan komponentlar ko‘rsatkichi orasidagi farqni aniqlab, kesishuvchi chiziqlar ustiga yozib qo‘yiladi. Komponentning ko‘rsatkichi bilan chiqarilgan natija gorizontal chiziqlar bilan tutashtiriladi. O‘ng tomonidagi sonlar yig‘indisi «pomol» partiyasining umumiy miqdorini ifodalaydi, har bir o‘ng tomonidagi son komponentning ulushini ko‘rsatadi.

Misol. Ikki komponentli, shaffofligi 35 va 60% bo‘lgan don partiyasidan, shaffofligi 50% bo‘lgan pomol partiyasi tuzish kerak.



“Pomol” partiyasidagi qismlar soni 25 ni tashkil qiladi. Shunda shaffofligi 35% bo‘lgan pomol partiyasi bo‘lgan komponentning ulushiga 10 qism va ikkinchi komponentning ulushiga 15 qism to‘g‘ri keladi.

Komponentlarni aralashtirish uchun:

Birinchisiga

$$\frac{100 * 10}{25} = 40\%;$$

Ikkinchisiga

$$\frac{100 * 15}{25} = 60\%;$$

Aralashmani shaffofligini tekshirib ko‘ramiz:

$$C = \frac{35 * 40 + 60 * 60}{100} = 50\%$$

shunga o‘xhash uch yoki to‘rt komponentlar uchun hisob-kitob qilinib, boshqa grafiklar tuzamiz.

4-AMALIY MASHG‘ULOT YORMA ISHLAB CHIQARUVCHI USKUNALARINING QUVVATINI HISOBLASH

Unumdorligi 300 t/sut bo‘lgan don tozalash bo‘limi uchun uskunalar sonini hisoblash.

1. Tozalanmagan don uchun bunkerlar hajmini aniqlash:

$$n = \frac{Q \bullet \tau}{24 \bullet m_v \bullet k_u} = \frac{300 \bullet 30}{24 \bullet 0,75 \bullet 0,85} = 588 \text{ m}^3,$$

bu yerda: τ – vaqt;

m_v – donning natural og‘irligi;

k_u – hajmdan foydalanish koeffitsiyenti.

Bunkering balandligini (2 qavat) $h = 9,6$ m deb olsak, uning maydoni F quyidagicha aniqlanadi:

$$F = \frac{V}{h} = \frac{588}{9,6} = 61,25 \text{ m}^2$$

Bunkering kvadrat kesimi, $f_1 = 3 \times 3 = 9 \text{ m}^2$, u holda bunkerlar soni:

$$n_x = \frac{F}{f_1} = 6,8$$

Demak, 7 ta bunker qabul qilinadi.

2. A1-BIS-12 rusumli separatorning unumdorligi 12 t/soat, u holda.

$$n = \frac{300}{24} = 12,6 \text{ m / coam}$$

Bitta A1-BIS-12 rusumli separator qabul qilinadi.

Don tozalash bo‘limidagi unumdorlik 15-20 % zahira bilan hisoblanadi:

$$Q = 1,2 \bullet 300 = 360 \text{ m / cym}$$

$$\text{yoki } 300 : 24 = 12,6 \text{ m / coam}$$

3. Don massasidagi mineral chiqindilarni ajratish uchun R3-BKT-100 rusumli, unumdorligi 9 t/soatl tosh ajratuvchi uskuna sonini hisoblash.

$$n = \frac{12,6}{12} = 1,05$$

Demak, bitta tosh ajratuvchi uskuna qabul qilinadi.

4. Don massasidan mayda chiqindilarni ajratuvchi unumdorligi 2 t/soat bo‘lgan «Okrim» uskunasi sonini hisoblash.

«Okrim» rusumli pnevmosalovchi stol uskunasiga umumiyl yuklamadan 15,5 % yoki 2,3 t/soat yuklama tushadi, unda:

$$n = \frac{2,3}{2} = 1,15$$

Demak, bitta «Okrim» pnevmosalovchi stoli qabul qilinadi.

5. R3-BKT-100 «Okrim» rusumli tosh ajratuvchi va pnevmosalovchi stolning ustiga 30 daqiqa zahira bilan ishlashlari uchun bunkerlar o‘rnatish tavsiya etiladi. Shuning uchun «Okrim» pnevmosalovchi stol uchun hajmi 1,2 tonna, R3-BKT-100 tosh ajratuvchi uskuna uchun hajmi 9 tonna bo‘lgan bunkerlar o‘rnatiladi.

Unumdorligi 300 t/sut. bo‘lgan oqlash bo‘limi uskunalarini hisoblash va tanlash.

1. I oqlash uskunasini hisoblash: RS-1250 rusumli oqlash uskunasining unumdorligi 3 t/soat, 1 sutkada 72 t/sut. donni oqlaydi.

1.1. I oqlash sistemasiga umumiyl yuklamaning 90 % i yoki 270 t/sut yuklama tushadi, u holda:

$$n = \frac{Q}{q_{us}} = \frac{270}{72} = 3,75$$

Hisob asosida 4 ta RS-1250 oqlash uskunasi qabul qilinadi.

1.2. II oqlash sistemasi RS-1250 uskunasiga umumiyl yuklamadan 88 % i yoki 264 t/sut. yuklama tushadi, u holda:

$$n = \frac{264}{72} = 3,7$$

Demak, II oqlash sistemasi uchun 4 ta uskuna qabul qilinadi.

1.3. RS-1250 sayqallash uskunasiga tushadigan yuklamani hisoblash.

Balans bo‘yicha:	I sayqallash sistemasiga	- 82,4 %
	II sayqallash sistemasiga	- 78,34 %
	III sayqallash sistemasiga	- 74,24 %
	IV sayqallash sistemasiga	- 70,04 %

yuklama to‘g‘ri keladi.

Texnologik jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan sayqallash uskunalarining soni:

$$n = \frac{300}{25} = 12$$

Bu yerda 25 t/s RS-1250 sayqallash uskunasining unumdorligi. Shundan I sayqallash sistemasiga

$$n = \frac{12 \cdot 82,44}{\sum Q_n},$$

bu yerda: $\sum Q_n = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 = 82,44 + 78,34 + 74,24 + 70,04 = 305,06$

$$n_1 = \frac{12 \cdot 82,44}{305,06} = 3,2$$

Demak, I sayqallash sistemasiga 3 ta RS-1250 uskunasi qabul qilinadi.

$$n_2 = \frac{12 \cdot 78,34}{305,06} = 3,1$$

II sayqallash sistemasiga 3 ta RS-1250 rusumli uskuna qabul qilinadi.

$$n_3 = \frac{12 \cdot 74,24}{305,06} = 2,9$$

III sayqallash sistemasiga 3 ta uskuna qabul qilinadi.

$$n_4 = \frac{12 \cdot 70,04}{305,06} = 2,7$$

IV sayqallash sistemasiga ham 3 ta uskuna qabul qilinadi.

2. A1-DDM don maydalaydigan uskuna sonini hisoblash.

A1-DDM rusumli maydalaydigan uskunaning elaklari diametri 4,0 mm, unumdarligi soatiga 5 t yoki 120 t/sut. ga teng bo'lganda, uning soni:

$$n = \frac{Q}{q_m} = \frac{300}{120} = 2,5$$

Hisobga asosan, 3 ta maydalovchi uskuna qabul qilinadi.

Yorma zavodidagi texnologik jarayonlarni loyihalashda, uning unumdarligi 200 t/sut dan ortiq bo'lsa, bitta rezerv maydalovchi uskuna qabul kilish tavsiya etiladi.

3. A1-BRU rusumli rashevlar sonini hisoblash.

Buning uchun, avvalo, uning umumiylash yuzasi aniqlanadi:

$$F = \frac{Q}{f}$$

bu yerda: f – 1 m² elash yuzasining normasi.

Bug'doy donidan yorma ishlab chikaruvchi zavodlarda f = 1 t/c (1 m²)ga teng.

Bug'doy donidan yorma olish texnologik jarayonlarida maydalash uskunasidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu uskunadan 2 xil yorma ishlab chikarishda foydalaniladi. Shuning uchun 1 m² elash yuzasiga 2,2 t/sut yuklama beriladi, u holda;

$$F = \frac{300}{2,2} = 136,4 \text{ m}^2$$

Norma bo'yicha sayqallash bo'limiga 90 % elanish yuzasi ajratiladi:

$$F = 136,4 \cdot 0,9 = 122,8 \text{ m}^2$$

Buning uchun zarur bo'lgan maydalash uskunasi soni:

$$n = \frac{122,8}{13,5} = 9$$

Ushbu hisob asosida 9 ta rashev qabul qilinadi.

Umumiylash yuzasini texnologik jarayonlar bosqichlari bo'yicha taqsimlash:

- maydalangan oraliq mahsulotlar uchun – 20 %;
- sayqallangan oraliq mahsulotlar uchun – 30 %;

- yormalarni nazorat qilish uchun – 20 %;
- muchkani nazorat qilish uchun – 20 %.

3.1. Maydalangan oraliq mahsulotlarni saralash uchun elash yuzasi:

$$F_{\text{май}} = F_{\text{ымы}} \bullet 0,2 = 136,4 \bullet 0,2 = 27,3 \text{ м}^2$$

Buning uchun zarur bo‘lgan A1-BRU rasseyvi ($f = 13,5 \text{ м}^2$) soni:

$$n = \frac{27,3}{13,5} = 2,2$$

Hisob asosida 2 ta A1-BRU rasseyvi qabul qilinadi.

Ularning elash yuzasi:

$$F_1 = 13,5 \bullet 2 = 27 \text{ м}^2$$

3.2. Sayqallangan oraliq mahsulotlarni saralash uchun elak yuzalarini hisoblash:

$$F_{\text{сауқ}} = F_{\text{ымы}} \bullet 0,3 = 136,4 \bullet 0,3 = 40,9 \text{ м}^2$$

Yuqoridagi hisobga asosan, oraliq mahsulotlarni saralash uchun 3 ta A1-BRU rasseyvi qabul qilinadi.

3.3. Yormalarni nazorat qilish uchun elash yuzasini hisoblash:

$$F_e = F_{\text{ымы}} \bullet 0,2 = 136,4 \bullet 0,2 = 27,3 \text{ м}^2$$

Zarur bo‘lgan uskuna soni:

$$n_3 = \frac{27,3}{13,5} = 2,2$$

Yormalarni nazorat qilish uchun A1-BRU rasseyidan 2 ta qabul qilinadi.

Bunda elash yuzasi $F_3 = 27 \text{ м}^2$ ga teng.

3.4. Muchkani nazorat qilish uchun elash yuzasini hisoblash:

$$F_m = F_{\text{ымы}} \bullet 0,2 = 136,4 \bullet 0,2 = 27,3 \text{ м}^2$$

Nazorat uchun zarur bo‘lgan rasseyv soni:

$$n_3 = \frac{27,3}{13,5} = 2$$

Demak, 2 ta A1-BRU rasseyvi qabul qilinadi.

Hammasi bo‘lib, oqlash bo‘limidagi texnologik jarayonda 9 ta rasseyv ishlaydi.

4. A1-BDZ duoaspiratorini hisoblash.

4.1. № 1, 2, 3 A1-BRU rasseyida hosil bo‘lgan I «(o‘tma) sxod»i uchun:

$$n = \frac{Q \bullet M}{q_a \bullet 100},$$

bu yerda: M – rasseydan chiqqan mahsulotning «(chiqishi)vixod»i, $M = 10 \%$;

q_a – A1-BDZ duoaspiratorining unumdorligi, maydalash uskunasida hosil bo‘lgan oraliq mahsulot uchun 3,75 t/soat yoki 90 t/sut.

$$n = \frac{300 \bullet 10}{90 \bullet 100} = 0,3$$

Demak, bu jarayon uchun bitta uskuna tanlash yetarli.

4.2. № 1, 2, 3 A1-BRU rashevining II «sxod» oraliq mahsuloti uchun zarur bo‘lgan uskuna soni:

$$n = \frac{Q \cdot M}{q \cdot 100} = \frac{300 \cdot 70}{180 \cdot 100} = 1,2$$

bu yerda: M – II “sxod”dagi oraliq mahsulot;
q = 75 t/soat yoki 180 t/sut, A1-BDZ-12 uchun.

Yuqoridagi hisob bo‘yicha 2 ta A1-BDZ-12 uskunasi qabul qilinadi.

4.3. № 1, 2, 3 A1-BRU rashevining III «sxod»i uchun: M = 15 %

$$n = \frac{300 \cdot 15}{30 \cdot 100} = 0,5$$

Bitta A1-BDZ-6 duoaspirator qabul qilinadi.

4.4. IV sayqallash sistemasidan so‘ng hosil bo‘lgan yorma uchun A1-BDZ-6 duoaspiratori sonini hisoblash.

$$n = \frac{300 \cdot 0,67}{90} = 2,2$$

Hisob asosida 3 ta A1-BDZ-6 duoaspiratori qabul qilinadi.

1-yormani nazorat qilish uchun zarur bo‘lgan duoaspirator sonini hisoblash:

$$n = \frac{300 \cdot 47}{180 \cdot 100} = 0,78$$

Demak, bitta A1-BDZ duoaspiratori qabul qilinadi.

5. A1-BSHM-2,5 rusumli sayqallash uskunasini 2-yorma V sayqallash sistemasi uchun hisoblash:

$q_c = 2$ t/soat yoki 48 t/sut, u holda:

$$n = \frac{Q \cdot 50}{q_c \cdot 100} = 3,125$$

Hisobga asoslanib, 3 – jarayon yo‘llariga bittadan A1-BSHM-2,5 sayqallash uskunasi qo‘yiladi.

6. 2-yorma uchun «Okrim»pnevmosaralash stoli sonini hisoblash. Uning unumdarligi 2 t/soatga yoki 48 t/sut. ga teng. Uskunaga tushayotgan yuklama 15,5% ni yoki 46,5 t/sut ($300 \cdot 0,155 = 46,5$ t/s) ni tashkil qiladi, u holda:

$$n = \frac{Q}{q_n} = \frac{46,5}{48} = 0,97$$

Demak, pnevmosaralash jarayoniga 1 ta uskuna qo‘yiladi.

7. Muchka uchun zarur bo‘lgan DM-100 rusumli avtomat tarozini hisoblash. Ma’lumki, avtomat tarozi 1 minutda 2 marotaba cho‘michni (kovsh) ag‘daradi:

$$n = \frac{Q \cdot M \cdot 1000}{q_t \cdot 60 \cdot 24 \cdot 100} \text{ дона}$$

bu yerda: M – muchkaning miqdori, %, M = 32 %;
q_t – cho‘mich ko‘taradigan yuk, q_t = 50 kg;
60 – daqiqalar soni;
24 – 1 sutkada ishslash soatlarining soni;
1000 – tonnaning kilogrammdagi ifodasi.

$$n = \frac{300 \cdot 32 \cdot 1000}{50 \cdot 60 \cdot 24 \cdot 100} = 1,3 \text{ дона}$$

$q = 50 \text{ kg}$ jarayonga bitta avtomat tarozi qo'yiladi.

8. 1-yorma uchun zarur bo'lgan avtomat tarozini hisoblash:

$$n = \frac{300 \cdot 45 \cdot 1000}{50 \cdot 60 \cdot 24 \cdot 100} = 1,9$$

1-yormaning chiqishi $M = 45\%$.

Yuqoridagi hisob bo'yicha 2 ta DVK-50P rusumli tarozi tanlanadi.

9. 2-yorma uchun zarur bo'lgan avtomat tarozini hisoblash. 2-yorma uchun ($M = 15\%$, cho'mich ko'taradigan yuk $q_t = 50 \text{ kg}$):

$$n = \frac{300 \cdot 15 \cdot 1000}{50 \cdot 60 \cdot 24 \cdot 100} = 0,6$$

Demak, 2-yorma uchun bitta tarozi tanlanadi.

10. Donlarni dimlash uchun bunkerlarni hisoblash.

Bunkerlarda donlarni 2 soat davomida zahira uchun saqlab turiladi.

I oqlash sistemasining ustidagi bunker sig'imi.

$$E = \frac{300 \cdot 2}{24} = 25 \text{ мн}$$

Bunkerlarning o'lchamlari:

$$V = 1,5 \cdot 1,5 \cdot 4,8 = 10,8 \text{ м}^3$$

bu yerda: $1,5 \times 1,5$ – bunkerlarning o'lchamlari;

$4,8$ – bunker qavatining balandligi.

$$E = V \cdot m_V \cdot k_u,$$

bu yerda: m_V – donning natura og'irligi, t/m^3 ;

k_u – hajmdan foydalanish koeffitsiyenti, $k_u = 0,85$.

$$E = 10,8 \cdot 0,75 \cdot 0,85 = 7,0 \text{ мн},$$

$$n = \frac{25}{7} = 3,6$$

Hisoblarga asoslanib 4 ta bunker olinadi, ularning hajmi – $7 \times 4 = 28 \text{ tn}$. Bunkerlardagi don zahiralari maydalovchi uskunani uzluksiz 2 soat ishlashi uchun imkoniyat tug'diradi.

11. RS-1250 rusumli sayqallash uskunasi ustidagi bunkerni hisoblash.

Ma'lumki, uskunaga umumiylar yuklamaning 90% i tushadi, ya'ni 270 t/sut yoki 11 t/soat. Bunkerlar 1 soatli ish vaqtini uchun hisoblanadi.

$$V = 1,5 \cdot 1,5 \cdot 4,8 = 10,8 \text{ м}^3$$

Unga yuqoridagi hisobga ko'ra 7 tn don ketadi, u holda:

$$n = \frac{11}{7} = 1,6$$

Demak, ikkita bunker olinib, ularning har biriga 7 tn. dan don joylashtiriladi.

12. I sayqallash sistemasi uchun bunkerlarni hisoblash.

RS-1250 sayqallash uskunasiga 25 t/sut. yuklama tushadi va uchta uskuna baravariga ishlab turadi, shuning uchun 3 ta bunkering hajmi hisoblanadi:

$$V = 1,25 \bullet 2,5 \bullet 1,25 = 3,9 \text{ m}^3,$$

$$E = 3,9 \bullet 0,685 \bullet 0,7 = 1,9 \text{ mH} \quad m_V = 0,685 \text{ m/m}^3,$$

$$n = \frac{3,9}{1,9} = 1,6$$

13. A1-BSHM-2,5 rusumli sayqallash uskunasi ustidagi bunkerni hisoblash.
Bunkerlarning o'lchamlari:

$$V = 1,25 \bullet 1,25 \bullet 1,5 = 2,34 \text{ m}^3,$$

$$E = V \bullet m_V \bullet k_u = 2,34 \bullet 0,779 \bullet 0,8 = 1,5 \text{ mH}$$

Bunkerlar hajmini uskunaning 45 min. ish vaqtiga bo'linadi:

$$t = \frac{E \bullet 60}{q_m} = \frac{1,5 \bullet 60}{2,0} = 45 \text{ мин}$$

14. 1-yormani saqlash uchun zarur bo'lgan bunkerni hisoblash.
Bunkerlarning o'lchamlari:

$$V = 2 \bullet 2 \bullet 4,8 = 19,2 \text{ m}^3,$$

$$m_V = 0,808 \text{ m/m}^3$$

Bunkerning sig'imi:

$$E = V \bullet m_V \bullet k_u = 19,2 \bullet 0,808 \bullet 0,8 = 12,4 \text{ mH}$$

Bunkerlarni hajmini 3 smenada ikki soatda ishlash (yormalarni qopga solish) vaqtinini hisobga olgan holda hisoblanadi, u holda bunkerlarni hajmi:

$$E = \frac{Q \bullet 0,45 \bullet 2}{8} = \frac{300 \bullet 0,45 \bullet 2}{8} = 33,4 \text{ mH}$$

bu yerda: $m_V = 0,45$ – 2-yormaning «vixod»i – 45 %;
2 – bunkerning 2 soatlilik zahira hajmi;
8 – smenada ishlash vaqt.

Bunkerlar soni:

$$n = \frac{E_{yorm}}{E_1} = \frac{33,4}{12,4} = 2,7$$

Demak, 1-yorma uchun 3 ta bunker olinadi.

15. 2-yormani saqlash uchun bunkerni hisoblash:

$$E = \frac{300 \bullet 0,15 \bullet 3}{8} = 16,9 \text{ mH}$$

bu yerda: $m_V = 0,808 \text{ kg/m}^3$;
15 – yormaning «vixod»i – 15 %;
3 – ishlash vaqt.

Bunkerlar soni:

$$V = 2 \bullet 2 \bullet 4,8 = 19,2 \text{ m}^3,$$

$$E = 19,2 \bullet 0,808 \bullet 0,8 = 12,4 \text{ mH}$$

$$n = \frac{16,9}{12,4} = 1,4$$

16. «Okrim» rusumli saralovchi uskunasi ustidagi bunkerni hisoblash.
«Okrim» uskunasiga tushayotgan yuklama:

$$300 \bullet 0,16 = 48 \text{ m / cym} \quad \text{ëku} \quad 2 \text{ m / coam}$$

Bunkerlarning o‘lchamlari:

$$V = 1,25 \bullet 1,25 \bullet 1,25 = 1,95 \text{ m}^3$$

$$E = 1,95 \bullet 0,808 \bullet 0,8 = 1,2 \text{ mH}$$

17. Muchkani saqlash uchun bunkerni hisoblash.

Bunkerlarning hajmi:

$$V = 3 \bullet 3 \bullet 9,6 = 86,4 \text{ m}^3$$

Bitta bunkerning hajmi:

$$E = 86,4 \bullet 0,489 \bullet 0,85 = 35,9 \text{ mH}$$

Bir sutkada ishlab chiqariladigan muchka $300 \bullet 0,32 = 96 \text{ m}$ (32 % muchkaning «vixod»i)

Bunker sonini hisoblashda 3 sutkalik zahira ish vaqtini e’tiborga olish kerak.

$$n = \frac{96,0}{35,9} = 8,0$$

Muchka uchun bunker 8 ta kerak.

18.1. A1-DDM maydalash uskunasi oldidan o‘rnatiladigan magnit separatorlari sonini hisoblash:

Tavsiya qilingandek, norma asosida har bir 100 t/sut. oraliq mahsulot uchun maydalash uskunasi oldidan 0,8 m uzunlikdagi magnitlar o‘rnatiladi, u holda:

$$L = \frac{300 \bullet 0,8}{100} = 2,4 \text{ m}$$

Hisob asosida har bir maydalash uskunasi ustiga U1-BMM rusumli ($L_m = 1 \text{ m}$) magnit kolonkasi qo‘yiladi.

18.2. RS-1250 sayqallash uskunasi ustiga o‘rnatiladigan magnit separatorini hisoblash.

I sayqallash sistemaga 82,44 % yoki 247,3 t/sut. oraliq mahsulot tushadi. Har 100 t/sut mahsulotga 0,8 m magnit qo‘yiladi, u holda:

$$L = \frac{247,3 \bullet 0,8}{100} = 1,98 \text{ m}$$

Hisoblar bo‘yicha har bir uskuna ustiga U1-BMM magnit separatori qo‘yiladi.

18.3. A1-BSHM-2,5 sayqallash uskunasiga umumiy yuklamadan 16 % i tushadi, u holda:

$$\begin{aligned} 300 \bullet 0,16 &= 48 \text{ mH}, \\ n &= \frac{48,0 \bullet 0,8}{100 \bullet L_m} = \frac{48,0 \bullet 0,8}{100 \bullet 1} = 0,77 \end{aligned}$$

$$L = 0,8 \text{ m}$$

Hisoblarga asoslanib, har bir yo‘l uchun bittadan U1-BMM magnit separatori qo‘yiladi.

18.4. Tayyor mahsulot uchun bunkerni hisoblash.

2-yorma 45 % yoki 135 t/sut. Norma asosida har bir 100 t tayyor mahsulotga 1,0 m magnit qo‘yiladi:

$$L = \frac{135 \bullet 1}{100} = 1,35 \text{ m}$$

Mahsulot tushib kelayotgan «samotek»ka magnit bloklari (maxsus materialdan tayyorlangan «Magniko» separatori har bir blokda 8 dona)magnit taqalari joylashgan, $l_1 = 0,12 \text{ m}$ joylashtiriladi.

$$n = \frac{1,35}{0,12} = 11,2 \text{ , uning } L_m = 1,44 \text{ m}$$

Yuqoridagi hisoblarga asosa, 12 ta magnit bloklaridan foydalaniadi.

2-yorma mahsulotlari uchun

$$300 \bullet 0,15 = 45 \text{ m/cym},$$

$$L = \frac{45}{100} = 0,45 \text{ m},$$

$$n = \frac{0,45}{0,12} = 3,7$$

Hisob asosida 4 blok (har blokda 8 ta magnit taqalari joylashgan) yoki $L = 0,48 \text{ m}$

5-AMALIY MASHG‘ULOT

NON ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI QUVVATINI XISOBLASH

Ishlab chiqarish pechlari quvvati, mahsulotning og‘irligi, pishish davomi hamda mahsulot uchun qoliplar soni, listlar, podlar soni, o‘lchamlari ko‘rsatgichlariga bog‘liq.

Qolipli nonlar qolipga solib pishiriladi. Qoliplar lyulkalarga(tebratgich) mahkamlangan.

1. Lyukali pechlар uchun: pechning 1 soatda ishlab chiqarishi quyidagi formuladan topiladi:

$$P_{coam} = \frac{N \cdot n \cdot M \cdot 60}{t_n} \kappa\varphi / coam$$

N – pechdagи ishchi lyulkalar soni, dona

n – lyulkadagi mahsulot soni, dona

t_n – pishish davomi, min.

M – bitta tayyor mahsulotning standart og‘irligi, kg;

60 – 1 soatdagi minutlar soni.

2. Qolipsiz (podovoy) nonlar podlarda pishiriladi. (Yumaloq, oval shakldagi podovoy nonlar, batonlar, bulkalar).

